XALQ DEPUTATLARI OHANGARON TUMAN KENGASHINING
Q A R O R I

2022 - yil 24 - yanvar VI-35-12-10-134-K/22 Ohangaron tuman hokimligi

Ohangaron tumanining 2022 yil mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “2022 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni, Byudjet kodeksining 99-moddasi hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6,24-moddalariga asosan, Xalq deputatlari Ohangaron tuman Kengashi sessiyasi,

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2022 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni va Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining 2022 yil 8 yanvardagi VI-44-4-10-0-K/22-son qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining 2022 yil 8 yanvardagi VI-44-4-10-0-K/22-son qaroriga muvofiq Ohangaron tumani mahalliy byudjetining 2022-yilgi daromadlari 54 102 944 ming so‘m, xarajatlari 82 486 069,7 ming so‘m ma'lumot uchun qabul qilinganligi hamda viloyat byudjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar 28 383 125 ming so‘m miqdorida tasdiqlanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Hududiy byudjet mablag`larini tasdiqlovchilarga Ohangaron tumani byudjetidan ushbu Kengash qaroriga muvofiq ajratiladigan mablag‘lardan faqat 2022-yil moliya yili davomida foydalaniladi.

4. Toshkent viloyati Ohangaron tumanining mahalliy byudjet daromadlari

prognozi va xarajatlari:

- 2022 yil uchun Ohangaron tumani mahalliy byudjeti daromadlari prognozi 1-ilovaga muvofiq ma'lumot uchun qabul qilinsin;

- 2022 yil uchun Ohangaron tumani byudjetidan hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag'larning cheklangan miqdori 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin;

- 2022-yil uchun Ohangaron tumani byudjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo trasfertlar miqdori 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin. Bunda, ushbu Kengash qarorida nazarda tutilgan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorini Ohangaron tuman mahalliy byudjeti daromadlari prognozining igrosidan qat'iy nazar, kamaytirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

5. 2022 yil uchun Toshkent viloyatining viloyat va Ohangaron tumani byudjetlari o‘rtasida ajratmalar normativlari belgilanadigan umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to‘lovlar, shuningdek soliq bo‘lmagan to‘lovlar 4-ilovaga muvofiq ma'lumot uchun qabul qilinsin.

Bunda, ajratmalar normativlari bo‘yicha viloyat mahalliy byudjeti bilan Ohangaron tumani mahalliy byudjetining ajratmalar normativlari o‘rnatilgan tartibda Ohangaron tumani bo‘yicha g‘aznachilik bo‘linmasi tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilsin.

6. 2022 yil uchun Ohangaron tuman byudjetida yo‘l qo‘yiladigan aylanma kassa mablag‘larining eng kam miqdori 5-ilovaga muvofiq belgilansin.

7. Toshkent viloyati Ohangaron tumani mahalliy byudjetining zahira jamg‘armalarini shakllantirish: 2022-yil uchun Ohangaron tumani byudjeti zahira jamg‘armasi hajmi 778 170 ming. so‘m miqdorda belgilansin.

Ohangaron tumani byudjetining 2022-yil uchun zahira jamg‘armalari tegishli byudjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida 1,0 foizi (jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltiriladigan mablag‘dan tashqari) miqdorida shakllantirilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

Ohangaron tumani byudjetining zahira jamg‘armasiga yuqori turuvchi byudjetdan ajratilgan taqdirda ushbu Kengash qaroriga o‘zgartirishlar kiritilmaydi.

8. 2022 yil uchun Ohangaron tumani byudjeti daromadlarini shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlari:

a) soliqlarning quyidagi turlari Ohangaron tumani byudjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

- jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

- jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

- jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq

- yuridik shaxslardan mol-mulkiga solinadigan soliq;

- yuridik shaxslar yer solig‘i;

- korxonalar aylanmasidan soliq;

-ayrim turdagi tovarlarning chakana savdosiga doir huquq uchun yig‘imlar;

- qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga undiriladigan boshqa yig‘imlar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig‘imlardan, g‘ildirakli transport vositalari, o‘ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undiriladigan utilizasiya yig‘imidan, shuningdek, avtotransport vositalari oynalarining tusini o‘zgartirishga (qoraytirishga) ruxsatnoma berish uchun to‘lovlardan tashqari);

Davlat aktivlarini joylashtirishdan, foydalanishga (ijaraga) berishdan va sotishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar.

b) Toshkent viloyatining, viloyat mahalliy byudjeti hamda Ohangaron tumani mahalliy byudjeti o’rtasida quyidagi tartibda taqsimlanadi:

- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tushumlar (jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklarasiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tashqari).

v) viloyatining, viloyat mahalliy byudjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi^

elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

- benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;

Qonunchilikda belgilangan miqdorlardagi davlat bojlari (patent bojlaridan va litsenziyalar berganlik uchun davlat bojlaridan tashqari):

Qonunchilikda belgilangan miqdorlardagi O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga undiriladigan jarimalar:

Qonunchilikda belgilangan miqdorlarda davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni realizasiya qilishdan tushgan tushumlar, mahalliy davlat organlarining ulushi bo‘yicha dividendlar (daromadlar) va ajratmalar.

Davlat mulkini xususiylashtirishdan tushgan tushumlar:

Agar qonunchilikda mahalliy byudjetlarga o‘tkaziladigan daromadlarning taqsimlanishi nazarda tutilmagan bo’lsa, daromadning ushbu turi viloyatning byudjetga o‘tkaziladi:

9. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari SH.Azamatov, tuman Moliya bo‘limi (A.Merganov), tuman Davlat soliq inspeksiyasi (O.Xamdamov), tuman hokim ligi va mas’ul idora va tashkilotlari bilan birgalikda:

- tuman byudjetini birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

Tegishli byudjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish:

- mahalliy byudjet prognoz ko‘rsatkichlarini o‘z vaqtida va samarali bajarish;.

- byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

- mahalliy byudjetga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

- byudjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash

zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

10. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (O.Xamdamov) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

- soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida byudjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

- yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

- aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsinlar.

- xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

11. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (O.Xamdamov), Kadastr agentligi tuman bo‘limi (A.Baratov), 2022 yildan boshlab yuridik shaxslar mol-mulk solig‘ini hisoblashda ko‘chmas mulklarga 1 kv.metr uchun minimal miqdorlar joriy etilganligidan kelib chiqib, tumanda soliq to‘lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlasin.

12. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (Xamdamov) nomida qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan kar’yerlarni aniqlash bo’yicha xatlovlar o‘tkazish;

Xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan kar’yerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

Noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan kar’yerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq

hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy o‘rnatsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan kar’yerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan “marksheyderlik” xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo’yilsin.

13. Ohangaron tumani hokimligi:

Mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatishga va natijalari bo‘yicha tavsiyalar berishga monitoring qilishga;

Kengash qarori asosida mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag’larini samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatishga va natijalari bo‘yicha tavsiyalar berishga monitoring qilishga;

Mahalliy byudjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etadi va ushbu mablag’larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas’ul etib belgilansin.

14. Ohangaron tuman hokimligi byudjetlari tasdiqlangan xarajatlarining (zahira jamg’armasi mablag’larisiz) 5 foiziga teng miqdordagi mablag’lar jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga hamda mahalliy byudjetda shakllangan qo‘shimcha manbalarning kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun Ohangaron tuman “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirilsin.

Bunda, tuman deputatlari, Yoshlar ishlar agentligi, tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas’ul etib belgilansin;

15. Ohangaron tumani hokimligi va hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilarga:

Har chorak yakuni bilan keyingi chorak birinchi oyining 25-sanasiga qadar rasmiy veb-saytlarga o‘z tasarrufidagi byudjet tashkilotlari kesimida mablag‘lar taqsimotini, moliyaviy hisobotlarni, kapital qo‘yilmalar hisobidan amalga

oshirilayotgan loyihalar ijrosini, o‘tkazilgan tanlov (tender) savdolari va davlat xaridlari hamda boshqa tegishli ma’lumotlarni joylashtirish;

Ohangaron tumani mahalliy byudjet qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakuniga ko’ra, keyingi chorak birinchi oyining 10-sanasiga qadar tegishincha Ohangaron tumani hokimligi tomonidan majburiy tartibda o’z rasmiy veb-saytlariga joylashtirish;

16. Tuman hokimligi va hududiy byudjet mablag‘laridan samarali foydalanishi hamda erishilgan natijalar to‘g‘risidagi hisobotlarni xalq deputatlari Ohangaron tuman Kengashiga taqdim etilishini ta’minlansin.

17. Tuman hokimligi va hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilarning byudjet daromadlari va xarajatlarining ko‘rsatkichlarini bajarilishini ta’minlash, soliq bazasini kengaytirish hamda iqtisodiy salohiyatini oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko’rish, mablag’laridan samarali byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi ustidan qat’iy nazoratni o’rnatishi uchun tuman Kengashiga ma’lumot kiritsin.

18. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

19. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi (S.Biydaev) va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Sh.Azamatov zimmasiga yuklatilsin.

Кенгаш раиси **А. Абдуллаев**

Халқ депутатлари Оҳангарон
туман Кенгашининг
2022 йил 24 январдаги
VI-35-12-10-134-K/22-сон қарорига
1-илова

2022 yil uchun Ohangaron tumani bo‘yicha
mahalliy byudjet daromadlarining reja ko‘rsatkichlari

Daromad turlari		**Summa ming so‘m**
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	575 147
2	Korxonalar aylanmasidan soliq	1 840 715
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	2 416 378
4	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	322 458
5	Yakuniy iste'molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	0
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	2 781 707
5	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	3 204 337
6	Yuridik shaxslar yer solig‘i	2 922 875
6	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	8 443 935
7	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	7 871 835
8	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	7 676 611
9	Davlat boji	0
10	Jarimalar	0
11	Davlat unitar korxonalari dividend tushumlari	0
9	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	314 020
10	Yig‘imlar	0
11	Xususiylashtirish	0
12	Boshqalar	0
JAMI		**38 370 018**

	Mobil aloqa xizmati va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘i tushumlaridan tegishli ravishda o‘tkazib beriladigan daromad	**15 732 926**
13	Alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo	5 954 610
14	Mobil aloqa xizmati	3 392 444
15	Tamaki mahsulotlari aksiz solig‘i	6 385 872
JAMI DAROMAD		**54 102 944**

Халқ депутатлари Оҳангарон
туман Кенгашининг
2022 йил 24 январдаги
VI-35-12-10-134-K/22-сон қарорига
2-илова

**2022 yil uchun Ohangaron tuman bo‘yicha
mahalliy byudjet xarajatlarining reja ko‘rsatkichlari**

Ko‘rsatkichlar		**Miqdori (ming so‘m)**
	Xarajatlar - jami	**82 486 069,7**
1.	**Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga xarajatlar - jami**	**55 647 043**
1.1	Maorif	11 215 595
	- maktabgacha ta'lim	4 552 654
	- umumiy ta'lim	6 662 941
1.2	Sog‘liqni saqlash	23 205 522
	Tibbiy-ijtimoiy xizmatlar uchun xarajatlar	59 400
1.3	Madaniyat va sport, ommaviy axborot vositalari	3 528 475
	- madaniyat va ommaviy axborot vositalari	880 949
	- sport	2 647 526
1.4	Bolali oilalarga va kam ta'minlangan oilalarga nafaqalar va kompensatsiyalar	17 561 793
1.5	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari	76 258
2.	**Iqtisodiyotga harajatlar**	**11 304 234**
2.1	Fermerlar xo‘jaliklari buxgalteriya markazlari	519 405
2.2	Obodonlashtirish	8 204 954
2.3	Suv xo‘jaligi vazirligi tashkilotlari	1 010 432
2.4	Veterinariya qo‘mitasi	868 580
	Mahalliy byudjetlarda hokim yordamchilarining tavsiyalari asosida mahalla infratuzilmasini yaxshilash uchun	700 863
3	**Davlat boshqaruv organlarini saqlash**	**7 723 195**
3.1	Davlat boshqaruv idoralari	7 723 195
4	**Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini saqlash**	**3 142 575**

5	**Zahira jamg‘armasi**	**778 170**
6	**Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi**	**3 890 852**

Халқ депутатлари Оҳангарон туман Кенгашининг
2022 йил 24 январдаги
VI-35-12-10-134-K/22-сон қарорига
3-илова

Umum davlat soliqlaridan tuman mahalliy byudjetiga ajratmalar me’yori

T/r	Tuman nomi	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	Aylanmadan olinadigan soliq	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq (elektrstansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq hamda Bo‘stonliq tumani bundan mustasno)	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan qurilish materiallari bo‘yicha yerqa’ridan foydalanganlik uchun soliq bundan mustasno)
	Ohangaron tumani	5	5	5	5	0	30	50	100

Халқ депутатлари Оҳангарон
туман Кенгашининг
2022 йил 24 январдаги
VI-35-12-10-134-K/22-сон қарорига
4-илова

Ohangaron tumani byudjetiga 2022 yilda viloyat byudjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfert miqdori

ming so‘m

T/r	Туман	Summa
1.	Ohangaron tumani	28 383 125,0

Халқ депутатлари Оҳангарон
туман Кенгашининг
2022 йил 24 январдаги
VI-35-12-10-134-K/22-сон қарорига
5-илова

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha tuman va shaharlar kesimida yer solig‘i stavkalari uchun 2022 yilda belgilangan koeffitsientlar

T/r	Tuman nomi	Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig‘i stavkalari, 1 ga uchun		Jismoniy shaxslar bo‘yicha, 1 kv.muchun	
		Koeffitsient	Yer solig‘i stavkasi	Koeffitsient	Yer solig‘i stavkasi
		(0,5 dan 2 gacha)	2022 yiluchun (mingso‘mda)	(0,5 dan 2 gacha)	2022 yilu chun (so‘mda)
	Ohangaron tumani	**1**	**29 532,0**	**1**	**270**
1	Yangixayot mfy	0,8	23 625,6	0,70	189,0
2	Gulobod mfy	0,8	23 625,6	0,70	189,0
3	Shodmalik mfy	0,8	23 625,6	0,70	189,0
4	G‘alla-quduq	0,8	23 625,6	0,70	189,0
5	Oybuloq mfy	0,8	23 625,6	1,10	297,0
6	Eyvalek mfy	1,1	32 485,2	1,10	297,0
7	Ubayd mfy	0,8	23 625,6	0,70	189,0
8	Ozodlik mfy yangi	0,8	23 625,6	1,10	297,0
9	Nurobod mfy	1,4	32 485,2	1,40	378,0
10	Yangabod mfy	1,1	32 485,2	1,10	297,0
11	Quyun mfy	1,1	32 485,2	1,10	297,0
12	Qiziloy mfy	1,1	32 485,2	1,10	297,0
13	Telov mfy	1,1	32 485,2	1,10	297,0
14	Toshariq mfy	1,1	32 485,2	1,10	297,0
15	Shovg‘oz mfy	1,0	29 532,0	0,90	243,0
16	“Sanam” mfy	1,0	29 532,0	1,00	270,0
17	Ovjazsoy mfy	0,9	265 78,8	0,90	243,0
18	Sartamg‘ali mfy	1,1	32 485,2	1,10	297,0
19	“Go‘shsoy” mfy(Oltinsoy)	1,0	29 532,0	1,00	270,0
20	“Chuvildoq” mfy (Fayzobod)	1,0	29 532,0	1,00	270,0
21	“Qorasuvyoqa” mfy(Kandirsoy)	1,0	29 532,0	1,00	270,0
22	Susam mfy	1,0	29 532,0	1,00	270,0
23	Ilg‘or mfy	1,0	29 532,0	1,00	270,0
24	Chinor mfy	0,9	26 578,8	0,90	243,0
25	Chet-suv mfy	0,9	26 578,8	0,90	243,0
26	Ko‘ksaroy mfy	0,9	26 578,8	0,90	243,0
27	Ungut mfy	1,1	32 485,2	1,10	297,0

28	O‘zbekiston mfy	1,1	32 485,2	1,10	297,0
29	Tut mfy	1,1	32 485,2	1,10	297,0
30	Yalpoqtepa mfy	1,1	32 485,2	1,10	297,0
31	Yonariq mfy	1,1	32 485,2	1,10	297,0
32	Markaziy qo‘rg‘on mfy	1,1	32 485,2	1,10	297,0
33	Alisher mfy	1,1	32 485,2	1,10	297,0
34	Qaraxtoy mfy	1,1	32 485,2	1,10	297,0

Халқ депутатлари Оҳангарон
туман Кенгашининг
2022 йил 24 январдаги
VI-35-12-10-134-K/22-сон қарорига
6-илова

Yuridik shaxslar bo‘yicha mol-mulk soliqlari uchun qo‘llaniladigan mutloq miqdorlari

T/r	**Tuman nomi**	**Koeffitsient (mutloq miqdor)**	**Belgilangan qiymat (so‘m)**
1.	Ohangaron tumani	1,00	1 000 000,0